

SAYLOV – XALQARO DEMOKRATIYANING ASOSIY TAMOIYILI. AQSH VA O‘ZBEKISTONDA
SAYLOV TIZIMI

To‘rayev Kozimjon Qosimovich

*Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani 39-umumiy
o‘rta ta‘lim maktabi Huquq fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi va AQShdagi saylov jarayonlarining qay tartibda o‘tkazilishi haqida so‘z yuritiladi, ya‘ni farqli va o‘xshash jihatlari taqqoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *saylov, qonunchilik, siyosiy jarayon, jamiyat, davlat, komissiya, ishtirokchilar, prezident saylovi.*

ВЫБОРЫ — ОСНОВА МЕЖДУНАРОДНОЙ ДЕМОКРАТИИ ПРИНЦИП. ИЗБИРАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА В США И УЗБЕКИСТАНЕ

Тораев Козимжон Касимович

*39-генеральный район Ферганской области Узбекистана
Учитель права средней школы*

Аннотация: *В данной статье говорится о порядке проведения избирательных процессов в Республике Узбекистан и США, то есть сравниваются их различия и сходства.*

Ключевые слова: *выборы, законодательство, политический процесс, общество, государство, комиссия, участники, президентские выборы.*

ELECTION IS THE FUNDAMENTAL OF INTERNATIONAL DEMOCRACY PRINCIPLE. THE ELECTION SYSTEM IN THE USA AND UZBEKISTAN

Torayev Kozimjon Kasimovich

*39-general district of Fergana region of Uzbekistan
Law teacher of a secondary school*

Abstract: *This article talks about the order in which election processes are conducted in the Republic of Uzbekistan and the United States, that is, compares their differences and similarities.*

Key words: *election, legislation, political process, society, state, commission, participants, presidential election.*

Saylov - huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri. Chunki jamiyat va davlat kelajagi, rivojlanishi aynan saylov jarayoni bilan bog'liq. Saylov jamiyat va davlat hayotida muhim siyosiy jarayondir. Yurtimizda saylov qonunchiligi boshqa sohalar kabi jamiyat va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda izchil ravishda takomillashib bormoqda. Eng muhim islohotlardan biri 2019- yil 25-iyunda Saylov kodeksi qabul qilinganligi va mamlakatimizda o'tkazilgan turli saylovlar tahlili, saylov jarayoni ishtirokchilarining takliflari va xalqaro kuzatuvchilarning tavsiyalari asosida 2021-yil 8-fevralda O'RQ-670-sonli O'zbekiston Respublikasining "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasining ikkinchi qismidagi "dekabr" degan so'z "oktyabr" degan so'z bilan almashtirilganligidir. Mazkur o'zgartishlarni qabul qilishda quyidagi milliy va xalqaro ahamiyatdagi omillarga tayanildi:

- saylovchilarning bildirgan xohish-istaklari; saylov komissiyalari a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar;
- xorijiy mamlakatlarning saylovlarni o'tkazish tajribasi;
- xalqaro kuzatuvchilarning tavsiyalari;
- saylov jarayoni ishtirokchilari uchun qulay sharoit yaratish zaruriyati va boshqalar.

2021-yil 24-oktabr O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi bo'lib o'tadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi mamlakatimiz hayotidagi g'oyat muhim ijtimoiy-siyosiy voqea hisoblanadi. Butun dunyo bo'yicha respublika boshqaruvidagi davlatlarda Prezident saylovi muhim ahamiyatga ega. Keling, dunyodagi rivojlangan davlat AQSHda prezidentlik saylovi bilan O'zbekiston Respublikasidagi prezidentlik saylovi jarayonlarining farqlariga to'xtalsak:

Demak, AQSHda prezident 4 yil muddatga saylanadi. Prezident saylovi prezidentning vakolat muddati tugaydigan yilda noyabrning birinchi dushanbasidan keyingi birinchi seshanbasida bo'lib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasida esa prezident 5 yil muddatga saylanadi, Prezident saylovi prezidentning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda - oktyabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

AQSh prezidentligiga saylov kuniga qadar o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan bo'lmagan, kamida 14 yil AQShda yashagan va AQShda tug'ilgan AQSh fuqarolar saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq AQSH Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

AQSHda, odatda, prezident saylovidan bir yil oldin prezident bo'lishni xohlovchilar ommaga prezidentlik uchun kurashmoqchi ekanliklarini e'lon qilib, saylovoldi kampaniyalariga start berishadi. Buning uchun ular bir necha bosqichdan o'tishlari zarur. AQSHdagi ikki yirik partiya — Respublikachilar va Demokratlar

partiyasidan nomzodlarini qo'ymoqchi bo'lganlar kokuz (caucuses) va praymeriz (primaries) jarayonlaridan o'tishlariga to'g'ri keladi. Kokuz va praymerizlarni o'tkazishdan asosiy maqsad — partiya nomzodlarini tanlashda partiya yetakchilaridan ko'ra, saylovchilar qatnashuvini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanganligi ularning vakolatlari muddati tugashidan kamida uch oy oldin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

AQSH Prezidentligiga nomzod o'z nomzodini AQSHdagi ikki yirik partiya — Respublikachilar va Demokratlar partiyasidan qo'yishi mumkin va bu uchun nomzod bo'lganlar kokuz (caucuses) va praymeriz (primaries) jarayonlaridan o'tishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatish huquqiga esa barcha siyosiy partiyalar egadir.

AQSHda prezident saylovi bo'yicha saylov kampaniyalarini davlat tomonidan moliyalashtirish hamda xususiy mablag'larni jalb etish orqali moliyalashtirishi mumkin, shuningdek, bir saylovchi (faqat AQSH fuqarosi) bir nomzodning saylov kampaniyasiga saylov oldidan 2800 AQSH dollardan ziyod moliyaviy hissa qo'shishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida prezidenti saylovi bo'yicha saylov kampaniyalari davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

AQSHda saylovchilar saylov uchastkalariga borib ovoz berishadi, lekin AQSHda qaysi nomzod AQSH prezidenti etib saylanishini saylovchilar kollegiyasi hal qiladi. Saylovchilar kollegiyasi - bu har bir shtatning Kongressdagi senatorlari va vakillari soni yig'indisiga teng bo'lib, ularning umumiy soni 538 kishini tashkil etadi. Demak, jami 538 ta saylovchilar kollegiyasi vakillarining eng ko'p ovozini, ya'ni kamida 270 ta ovozni qo'lga kiritgan nomzod AQSH prezidentligiga saylangan hisoblanadi.

O'zbekistonda prezident bevosita fuqarolar tomonidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga ko'rsatilgan nomzodlar orasidan saylovda ishtirok etayotgan saylovchilar tomonidan eng ko'p ovoz to'plagan nomzod prezidentlik lavozimiga saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga muvofiq, fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadir. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012.

2. 2021-yil 8-fevralda qabul qilingan "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qonun.

3. www.lex.uz